


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-sentabrida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 108 716,9 mld. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.

### **Yanvar-sentabr oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish**

	<i>mldr. so'm</i>		<i>2021-yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>88 611,5</b>	<b>108 716,9</b>	<b>107,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	80 163,2	97 934,2	107,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	8 448,3	10 782,7	110,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>80 163,2</b>	<b>97 934,2</b>	<b>107,6</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>34 884,3</b>	<b>43 133,3</b>	<b>106,6</b>
Sanoat	27 099,0	33 321,3	107,1
Qurilish	7 785,3	9 812,0	104,9
<b>Xizmatlar</b>	<b>45 278,9</b>	<b>54 800,9</b>	<b>108,5</b>
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 527,4	15 079,8	106,8
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	9 695,0	12 283,4	121,3
Boshqa xizmat tarmoqlari	23 056,5	27 437,7	104,0

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda  
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)**




Toshkent shahri iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish indeksi – 107,1 % ni tashkil etib (YAHM tarkibidagi ulushi 34,0 %), qurilish – 104,9 % (10,0 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 106,8 % (15,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 121,3 % (12,5 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 104,0 % (28,1 %) ni tashkil etdi.


**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**

*(jamiga nisbatan foizda)*

**2021 - yil yanvar-sentabr**




**2022 - yil yanvar-sentabr**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2022-yil yanvar-sentabr oylari davomida Toshkent shahri bo'yicha savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 15,4 % ni (2021- yil yanvar-sentabrdagi 15,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 12,5% ni (12,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi 28,1 % ni (28,8 %) tashkil etdi.

### **Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, (jamiga nisbatan foizda)**



Toshkent shahri iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy yalpi hududiy mahsulotning 90,1 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'i yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 44,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotning tarkibidagi ulushi esa 56,0 % ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-sentabr oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 37 510,6 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga o'sgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallahishi oqibatida YAHMda kichik biznesning ulushi 46,8 % ni tashkil qildi.


### **Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi**

( yanvar-sentabr oylari, jamiga nisbatan ulushi)



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3 punktga o'sgan.

### **Yalpi ichki mahsulotda Toshkent shahrining ulushi, foizda**



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Yalpi hududiy mahsulot-** milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot** – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajminimamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo'shilgan qiymat** - ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligacha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar**- tovar yoki xizmatlarning bir birligiga, yani rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar**- mahsulotlar uchun soliqlar mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar**- davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

**Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda**, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxdagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali aniqlanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot) davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.